

XORAZM VOHASINING TARIXIY GEOGRAFIK TASNIFLANISHI

Sobirov Javoxir Xayrulla o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti

70530201 – Geografiya mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Email: sabirovj75@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-7740-3759>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm vohasining tarixiy davlarda nomini kelib chiqishi va Xorazmning o‘sha davrlarda rivojlanishi, iqtisodiy aloqalari haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, Xorazm tushunchasining turli adabiyotlarda qanday atalganligi, kelib chiqishiga oid bo‘lgan rivoyatlardan eng haqiqatga yaqin bo‘lgan, olimlar tomonidan tan olinganlarini tahlil qilish va tarixiylik metodlaridan foydalanilganligi haqida hamda, maqola mualliflarining fikr hamda xulosalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: tarix, jo‘g‘rofiya, Ma‘mun akademiyasi, Xiva, Avesto, Kayrizao, Uvarazm, Xuvarazmis

ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

Аннотация: В данной статье представлена информация о происхождении названия Хорезмского оазиса, его развитии в древности и экономических связях. Также рассматривается, как термин Хорезм упоминается в различных источниках, какие из легенд о его происхождении признаны наиболее достоверными учеными, и использование исторических методов в анализе. Кроме того, в статье приводятся мнения и выводы авторов.

Ключевые слова: история, география, Академия Маамуна, Хива, Авеста, Кайризао, Уваразм, Хорезм

HISTORICAL GEOGRAPHICAL CLASSIFICATION OF THE KHOREZM OASIS

Annotation: This article provides information about the historical origins of the name of the Khwarezm oasis, its development during ancient times, and its economic relations. It also discusses how the concept of Khwarezm has been referred to in various literature, the most plausible origin stories recognized by scholars, and the use of historical methods in the analysis. Additionally, the article highlights the authors' viewpoints and conclusions.

Keywords: history, geography, Ma'mun Academy, Khiva, Avesta, Kayrizao, Uvarazm, Khwarezm

Kirish: Xorazm tushunchasi. Xorazm haqida gap boshlashdan oldin “Xorazm” tushunchasining asl ma’nosini aniqlash zarur bo‘ladi. “Xorazm” tushunchasini turli mualliflar turlicha talqin qilib, aniq bir fikrga kelganlari yo‘q. Shuni etiborga olib biz ham o‘z fikrlarimizni bayon qilmoqchimiz. Ya’ni “Xorazm” nomini kelib chiqishiga oid bo‘lgan eng haqiqatga yaqin fikrlar haqida gapirib o‘tamiz.

Xo‘sh, “Xorazm” nomining ma’nosi nima ?

Xorazm nomi dastlab zardushtiylik dinining ilohiy kitobi bo‘lmish “Ovasto”(Avesto)da “Kayrizao” tarzida berilgan. Ma’lumki “Ovasto” kitobi Fors tilida yozilgan. Nemis adibi arabshunos olim E.Zaxauning fikricha Kayrizao ikki qismdan iborat bo‘lib, “Kayri”-ozuq-ovqat, “zam”-yer ma’nosini bildiradi. Ya’ni “Kayrizao” - ozuq-ovqatga boy mamlakat demakdir. [1. 32-bet]

Qadim zamonlarda Xorazmliklar Eron tilining (Sharqiy Eron) mahalliy shevasida gapirganlar va yozganlar. Islom dini joriy qilingandan keyin ham, hatto XI - asrda ham ular Fors laxjasida gapirganlar. Chunki Xorazmda Eron madaniyatining ta’siri kuchli bo‘lgan. Bunga sabab nafaqat Xorazmning Eron bilan yonma-yon, chegaradosh bo‘lishi balki qayyoniyalar va ahamoniylar sulolalarining O‘rta Osiyoda, jumladan, Xorazmda ko‘p asrlar davomida hukmronlik qilishida hamdir.

Xorazmshohlar davrida fors tili mahkama tili sifatida foydalanilgan. Demak, mahalliy til bilan bir qatorda fors tili ham ma’muriy til sifatida qo‘llanilgan. Shuning uchun xam “Xorazm” so‘zining etimologiyasini, bizning fikrimizcha, fors tilidan ahtarmoq kerak. Ahamoniylarning qadimiy oramiy yozuvlarida (mil av VI-IV



asrlar) jumladan Behistun va Persepol yozuvlarida Xorazm nomi Uvarazm shaklida, qadimiy fors asarlarida Xuvarazmis shaklida uchraydi. Bu yerda Xuvarazmis (Hiwarazmis) soʻzining asl maʼnosi: “pastlikda”, “pastekislikda joylashgan yer” maʼnosini beradi. Xorazm juda qadim zamonlardan beri Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq, Kavkaz, Yevropa davlatlari bilan yaqindan savdo iqtisodiy aloqada boʻlib kelgan. Xorazm savdogarlari oʻsha davrlardayoq uddaburon, epchil boʻlganlar. Ular moʻyna, baliq, mevalar bilan juda katta savdolar qilar edilar. XII-XIII asrlarda Koʻhna Urganch Xorazmning eng yirik madaniy savdo shahri boʻlgan. Shaharda mohir ustalar, tikuvchilar, kulollar, har xil kosiblar yashaganlar. Xorazmda iqtisodining taraqqiy etishi oʻz navbatida fan, sanʼat, madaniyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Xorazmda yozuv ham qadim zamonlardan beri mavjud boʻlgan.[2. 6-bet]

Tuproqqalʼa saroyi harobalaridan topilgan teriga va yogʻochga yozuv hamda hujjatlarning topilishi buning misolidir. Xorazm vohasida geografik bilimlar juda qadim zamonlardan beri rivojlana boshlagan. Murakkab irrigatsiya inshootlari qurish, qalʼalar bunyod etish, hisob-kitoblarni bajara olish, yerlarning past-balandliklarini aniq oʻlchab bilishni taqoza etar edi. Bularni bajarish geografik bilimlarsiz mumkin emas edi. Xorazmning qum choʻllarning oraligʻida joylashganligi ularni uzoq-uzoqlarda joylashgan davlatlar bilan savdo-sotiq ishlarini ham yaxshi bilishni taqoza qilardi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar: Ushbu mavzuda foydalanilgan adabiyotlar “Xorazm geografiyasi” R.Qurbaniyozov va “Xorazm tarixi” nomli Urganch davlat universiteti qoshidagi “Xorazm tarixi va madaniyatini oʻrganish ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi” ilmiy xodimlari va hamda universitetning bir guruh tarixchi va filolog olimlari hamrohligida yozilgan qoʻllanmalar boʻlib, ularda Xorazm vohasining tarixiy davrlardagi holati rivojlanganligi shuningdek, juda koʻp olimlar tomonidan baxs va munozaralarga sabab boʻlayotgan Xorazm nomining kelib chiqishiga qaratilgan eng yaxshi maʼlumotlar tahlil qilindi. Mavzuda foydalanilgan eng asosiy metodlar bu tarixiylik va tahlil metodi boʻlib, ular orqali tarixiy kitoblardagi va 90-yillardan to hozirgacha boʻlgan davrlardagi manbalardan ham maʼlumotlar olindi. Shu oʻrinda Zardushtiylarning muqaddas kitobi boʻlmish “Avesto” kitobida ham Xorazm nomining kelib chiqishiga doir boʻlgan maʼlumotlar tahlil qilinib eng haqiqatga yaqin boʻlgan koʻpchilik olimlar tomonidan tan olingan manbalar ushbu maqolada keltirilgan.



Natijalar va muhokama: Mavzuni o‘rganish orqali olingan natijalar quyidagilardan iborat. Xorazm vohasining tarixiy geografik tasniflanishi jihatidan turli davrlarda yozilgan adabiyotlarda vohaning nomining kelib chiqishi va unga aloqador barcha ma’lumotlar bizning kunimizgacha juda ko‘p o‘zgarishlar asosida yetib kelgan. Shundan bo‘lishiga qaramay bu borada ham aniq bir ma’lumot berilmagan bo‘lib turli xil manbalarda turlicha ma’lumotlar keltirilib o‘tilgan. Xorazm nomining va aholisining kelib chiqishi haqida xar hil afsonalar bor. Ulardan eng qiziqarlisi X asrda yashagan Arab geografi Al-Masudiy quyidagicha afsona yozib qoldirgan: “Qadimgi zamonda Sharqdagi podshohlardan biri yaqin xizmatchilaridan 400 odamdan arazlab ularni aholi yashaydigan joydan 600 km uzoqqa hozirgi Beruniy tumani hududlariga chiqarib yuborishadi. Uzoq vaqtdan keyin podshoh xizmatchilarining ahvolidan xabar olish uchun odam yuboradi. Qaytib kelgach podshohga aytadi ularning tirik ekanligi kanallar qazib, baliq tutib tirikchilik qilayotganligini va o‘tin cho‘plarining ko‘p ekanligini aytadi. Podshoh buni eshitib ular go‘shni nima deb atashadi deb so‘rabdi. Shunda borib kelgan odam aytibdi “Xar” yoki “Xvar” deb javob beribdi. Keyin podshoh men ularga shu joyni berdim va u joyga “Xvarazm” deb nom beraman debdi va ularga 400 nafar turk ayol-qizlarni berishlarini buyuribdi va shu tariqa Xorazm nomi va aholisi kelib chiqibdi” deb rivoyat qilinadi. Yana bir boshqa manbalarda esa, yuqoridagi aytib o‘tilgan rivoyatni Xorazm to‘g‘risida arab sayyohi Muqaddasiy (985 yil) o‘zining “Axzam ut taqsim fi ma’rifat ul-aqolim” asarida keltirib o‘tadi deyilgan.¹ Bundan shuni aniq qilishimiz mumkinki bu rivoyat haqida ham aniq bir to‘g‘ri ma’lumotlar berilmagan. Mavzuni o‘rganishda Xorazm nomining kelib chiqishi haqida tarixchi professor olimlardan ma’lumotlar suhbat asosida olib o‘rganildi. Yana shuni aytish mumkinki bu mavzuga oid bo‘lgan ilmiy ishlar ham tahlil qilindi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Xorazm nomining kelib chiqishi haqida berilgan ma’lumotlar tahlil qilindi va ularning eng haqiqiyolari o‘rganildi. Shuningdek nomning kelib chiqishiga oid bo‘lgan juda qadimiy manbalarda berilgan ma’lumotlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi haqida taqdiqotlar ham olib borildi. Olingan asosiy natija sifatida Xorazm nomining kelib chiqishi uning geografik joylashuvi jihatidan kelib chiqqan nom degan xulosaga kelindi.

¹ <https://e-tarix.uz/maqolalar/394-xorazm-atamasi-haqida.html> sayti ma’lumotlari.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qurbaniyozov R. Xorazm viloyati agrosanoat kompleksi tarmoqlari jolashishi va rivojlanishi. O‘quv qo‘llanma. Urganch-2002. – 110 b.
2. Xorazm tarixi nomli Urganch davlat universiteti qoshidagi “Xorazm tarixi va madaniyatini o‘rganish ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi” ilmiy xodimlari va hamda universitetning bir guruh tarixchi va filolog olimlari hamrohligida yozilgan qo‘llanma. Urganch-1993. 6-bet.
3. <https://e-tarix.uz/maqolalar/394-xorazm-atamasi-haqida.html>



Research Science and
Innovation House

